


## X. KICHIK TADBIRKORLIK

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash va rag‘batlantirish, ularni erkin faoliyat yuritishi uchun qulay sharoit va muhit yaratish borasida amalga oshirilayotgan tadbirlar davomida 2024- yil 1-iyul holatiga ro‘yxatga olingan jami kichik tadbirkorlik (biznes) subyektlarining soni 37 180 tani tashkil qildi. (2023- yil 1- iyulga nisbatan 105,2 % ga ko‘pdir).

### Yangi tashkil etilgan kichik biznes subyektlari sonining 2024- yil 1- iyul holatiga iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha taqsimlanishi



■ Sanoat ■ Savdo ■ Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi ■ Qurilish ■ Boshqalar


Eng ko‘p kichik biznes subyektlari savdo tarmog‘ida (jami tashkil etilgan subyektlarning 37,2 %), sanoat sohasida (22,2 %), qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida (9,2 %) va qurilishda (7,3 %) tashkil etilgan.

**Hududlar bo'yicha yangi tashkil topgan kichik korxonalar va mikrofirmalar**

	2023- yil yanvar-iyun	2024- yil yanvar-iyun
<b>Viloyat bo'yicha jami</b>	<b>2 464</b>	<b>2 190</b>
Namangan shahar	659	644
Mingbuloq	192	155
Kosonsoy	165	150
Namangan	101	78
Norin	138	124
Pop	186	174
To'raqo'rg'on	191	108
Uychi	162	97
Uchqo'rg'on	209	200
Chortoq	181	136
Chust	141	153
Yangiqo'rg'on	139	151

2024-yilning yanvar-iyun oylarida yangi tashkil topgan kichik korxonalar va mikrofirmalar hududlar bo'yicha eng ko'p Namangan shahrida – 644 ta, Uchqo'rg'on tumanida – 200 ta, Pop tumani – 174 ta, Mingbuloq tumanida – 155 ta, Chust tumani – 153 ta, Yangiqo'rg'on, tumanida – 151 ta, Kosonsoy tumanida – 150 ta, Chortoq tumanida – 136 ta, Norin, tumanida – 124 ta, bu ko'rsatkich o'rta darajani tashkil etgan. To'raqo'rg'on, tumanida –108 ta, Uychi tumani – 97 ta, Eng past ko'rsatkich Namangan tumanida 78 tani tashkil etdi.

2024- yil yanvar-iyun oylarida yangi tashkil topgan kichik korxonalar  
va mikrofirmalarning hududlar bo'yicha ulushi, %da




2024- yil yanvar-iyun oylarida hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning jami miqdoridan eng ko'p ulushi Namangan shahrida – 30,3 %, Uchqurg'on tumanida – 9,1 %, Pop tumanida -7,9 %, Mingbuloq tumanida – 7,1 % Chust tumanida – 7,0 % Yangiqo'rg'on tumanida -6,9 %, Kosonsoy tumanida -6,8 %, Chortoq tumanida -6,2 %, Norin tumanida – 5,7 %, va tashkil etdi.

2024- yil yanvar-iyun oylarida yalpi hududiy mahsulotning 68,0 % (2023- yil yanvar-iyul oylarida 69,6 %) kichik biznes subyektlari tomonidan ishlab chiqarildi.

Kichik biznes subyektlari tomonidan 135,8 mln. AQSH dollari (umumiy eksport hajmining 44,7 %) miqdorida mahsulotlar (tovar va xizmatlar) eksport qilindi, 214,1 mln. AQSH dollari (umumiy import hajmining 61,2 %) miqdorida mahsulotlar (tovar va xizmatlar) import qilindi.

**Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning iqtisodiyotdagi ulushi**

(2024- yil yanvar-iyun oylari holatiga, % da)



**Kichik tadbirkorlik subyektlari (ish, xizmat) hajmi**

(2024- yil yanvar-iyun)

Iqtisodiy faoliyat turlari	Kichik tadbirkorlik subyektlari (ish, xizmat) hajmi, mlrd. so'm	Jami hajmga nisbatan ulushi, % da
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	11 384,4	102,6
Sanoat	5 849,2	109,8
Qurilish	3 318,2	108,9
Chakana savdo	9 055,5	108,4
Yuk tashish, mln. tonna	16,7	115,6
Yo'lovchi tashish, mln. kishi	211,8	111,4

2024- yil yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlikning  
hududlar kesimida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi,  
(%da)

	Sanoat	Qurilish	Xizmatlar	Investitsiyalar
<b>Viloyat bo'yicha jami</b>	<b>46,5</b>	<b>92,7</b>	<b>66,2</b>	<b>74,5</b>
Namangan shahar	60,6	95,2	47,6	79,9
Mingbuloq	25,6	93,7	85,6	19,9
Kosonsoy	45,6	93,6	82,0	80,3
Namangan tuman	77,0	90,3	85,1	61,9
Norin	99,9	96,2	83,5	71,0
Pop	91,7	54,9	72,3	96,0
To'raqo'rg'on	7,7	97,3	75,3	67,8
Uychi	69,7	98,3	80,4	93,1
Uchqo'rg'on	32,5	85,0	80,5	88,9
Chortoq	42,6	96,0	77,1	65,0
Chust	24,3	97,8	76,7	51,5
Yangiqo'rg'on	100,0	96,4	85,3	98,2

Hududlar bo'yicha **Sanoat** sohasining yuqori ulushini Yangiqo'rg'on, (100,0 %) Norin tumanlari (99,9 %) hamda Pop (91,7 %) tumanlari tashkil etdi.

**Qurilishda** – Uychi t, (98,3 %) Chust t, , (97,8 %) To'raqo'rg'on t, (97,3 %) Yangiqo'rg'on t, (96,4) tumanlari tashkil etdi.

**Xizmatlar sohasida** – Mingbuloq (85,6 %), Yangiqo'rg'on (85,3 %), Namangan t (85,1 %), Norin (83,5 %), tumanlari tashkil etdi.

**Investitsiyada** – Yangiqo'rg'on (98,2 %), Pop (96,0 %) Uychi (93,1 %), Uchqo'rg'on (88,9 %), Chortoq (86,3 %), Norin (71,0 %), tumanlarida yuqori ulushlarni tashkil etdi.